

Ўз вақтида огоҳлантириш, қутқариш ва ёрдам бериш асосий вазифамиздир!



# Vaziyat

2023 йил  
7 сентябрь  
№ 36 (925)



Ўзбекистон Республикаси Фавқулдда вазиятлар вазирлиги нашри ○

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган

## Ўзбекистон ФВВ жамоаси – жаҳон чемпиони



Туркиянинг Истанбул шаҳрида ўтказилган ёнгин-қутқарув спорти бўйича эркалар ўртасида XVIII жаҳон чемпионати ва аёллар ўртасидаги IX жаҳон чемпионати ўз якунига етди. Унда Ўзбекистон терма жамоаси ҳам иштирок этиб, эркалар жамоаси умумий ҳисобда 1-ўринни қўлга киритди.

Эслатиб ўтамыз, мазкур нуфузли мусобақаларда барча қўллардан 20 дан ортиқ жамоа иштирок этди.

Қизгин ва мурасасиз баҳсларда бор кучи, билими ва маҳоратини ишга солган

Ўзбекистон терма жамоаси ёнгин-қутқарув спорти бўйича жаҳон чемпиони, деган шарафли номга мушарраф бўлди.

Албатта, бу тарихий натижа. Ҳа, жаҳон чемпионати Кубоги илк бор Ўзбекистонга олиб келинди...

Ўз навбатида, жаҳон чемпионлари – фидойи сафдошларимизни ушбу нуфузли ғалаба билан самимий муборакбод этамыз.

Ғалаба барчамизга муборак бўлсин!

ФВВ Матбуот хизмати.



## ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН МАКТАБ ОСТОНАСИДАН БОШЛАНАДИ

Ҳарбий прокуратура органлари ходимлари умумтаълим мактабларига, шу жумладан, ўзларига бириктирилган олис ҳудудлардаги билим масканларига ташриф буюриб, мустақиллик дарсларида иштирок этдилар.



Улар ўз маърузаларида истиқлол, унинг моҳияти ва аҳамияти, юртимизда мустақиллик даврида ва сўнги йилларда таълим жабҳасида амалга оширилган оқилона ислохотлар, болаларга ва ёшларга яратилган имконият ҳамда имтиёзларга алоҳида тўхталдилар.

Шунингдек, меҳмонлар тадбир давомида буюк аждодларимиз

ҳамда она-Ватан, ватанпарварлик, ҳарбий ватанпарварлик, Ватанга садоқат, ҳалоллик, фидойилик каби олий туйгулар ҳақида атрофлича тушунчалар бериб, ёшларга ўқишларида омад ва муваффақиятлар тиладилар.

**Жаҳонгир АШУРОВ,**  
Республика Ҳарбий прокуратураси бўлим бошлиғи, адлия подполковниги.

## ҲАРБИЙ ПРОКУРОР КУБОГИ

Мустақиллигимизнинг 32 йиллиги муносабати билан “Янги ҳаёт учун, Янги Ўзбекистон учун!” шиори остида “Ҳарбий прокурор кубоги” учун Наманган вилоятида жойлашган ҳарбий қисм ва муассасалар ўртасида спортнинг “Мини футбол” тури бўйича мусобақалар ўтказилди.



Унда вилоятнинг Фавқулдда вазиятлар, Миллий гвардия, Қўриқлаш ва мудофаа ишлари бошқармалари, шунингдек, 10 га яқин ҳарбий қисм ва муассасалар ҳарбий хизматчилари иштирок этди.

Қизгин ва муросасиз кечган беллашувларда 1 учликдан жой олган Чегара қўшинлари, Мудофаа вазирлиги ва Қўриқлаш бошқармасига қарашли ҳарбий қисмлар жамоаси аъзоларига турнирнинг махсус совғаси, медал ва фахрий ёрлиқлар тақдим этилди.

Ғолиб жамоага “Ҳарбий прокурор кубоги” топширилди.

Муддатли ҳарбий хизмат оддий аскар Асаadbек Туллиев “Энг яхши ўйинчи”, кичик сержант Шахбозбек Азамжонов “Энг яхши дарвозабон” деб топилиб, қимматбаҳо эсдалик совғалари билан тақдирландилар.

**Қурбондурди ПОЛВАННАЗИРОВ,**  
Наманган ҳарбий прокурорининг ёрдамчиси, адлия капитани.

Давлатимиз мустақиллигининг 32 йиллиги муносабати билан “Янги ҳаёт учун, Янги Ўзбекистон учун!” шиори остида юртимиз бўйлаб маънавий-маърифий ва тарғибот-ташвиқот тадбирлари ўтказилмоқда.

## ЎҚУВ АНЖОМЛАРИ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ ЯРМАРКАЛАРИ

Шундай тадбирларнинг давоми сифатида Андижон ҳарбий прокуратураси ташаббуси билан вилоятдаги ҳарбий хизматчиларнинг мактаб ёшидаги фарзандлари учун арзонлаштирилган ўқув қуроллари ва мактаб дастурига киритилган фанларга доир адабиётлар ярмаркаси ташкил этилди. Ушбу тадбир билан бир пайтда ташриф буюрганларга арзонлаштирилган озиқ-овқат маҳсулотлари ярмаркаси ҳам хизмат кўрсатди.

Тадбирлар шукуҳи “Ҳарбий прокурор кубоги” учун спортнинг қўл жанги бўйича мусобақага уланиб кетди. Унда 50 дан зиёд ўғил ва қиз болалар 5 вазн тоифасида беллашишди.

Яқинда 25–30, 35–40 ва 45–50 кг. вазн тоифаларида 1-ўринларни эгаллаган 10 ёшли Насибулло Абдуллаев, 15 ёшли Ирода Жамолдинова ва 16 ёшли Ҳасанбой Абдуллаевга ҳамда бошқа совриндорларга медал, фахрий ёрлиқ ва эсдалик совғалари топширилди.

Умумжамоа ҳисобида эса Андижон гарнизонининг “Қалқон” жамоаси ғолиб бўлди.

**Азизбек МЎМИНОВ,**  
Андижон ҳарбий прокурорининг катта ёрдамчиси, адлия майори.



## ВИКТОРИНА

ФВВ Бошланғич тайёргарлик ва малака ошириш марказида “Сиз ҳуқуқни биласизми?”, “Фавқулдда вазиятларни бартараф этиш – асосий вазифамиз” мавзуларида викторина ўтказилди.

Бошланғич тайёргарликдан ўтаётган 5 та гуруҳ тингловчилари викторинада 3 та – “Блиц савол-жавоб”, “Жанговар текшириш” ва “Топқирлар баҳси” шартлари бўйича ўзаро беллашдилар.

Викторина қизгин баҳсларга бой бўлди. Синов натижаларига кўра, 4-гуруҳ тингловчиси, Қорақалпоғистон Республикаси ФВВ хизматчиси Раҳат Куширбаев биринчи ўринни эгаллади.

**А.ҚОБУЛОВ,**  
ФВВ БТва МОМ цикл бошлиғи, подполковник.  
**Ш.АҲМЕДОВ,**  
цикл бошлиғи.



## ДАВРА СУҲБАТИ

Қашқадарё вилояти ФВБ, Деҳқонобод тумани адлия бўлими, диний идора ва юридик хизмат кўрсатиш марказлари ҳамкорлигида “Биз – коррупцияга қаршимиз!” мавзусида давра суҳбати ўтказилди.

Тадбир давомида коррупцияга қарши курашиш, тамағирлик, фирибгарлик, ва бошқа жиноятчилик ҳолатларидан сақланиш, вазирлик кадр-қиммати ва ҳарбий хизматчи шаънига путур етказувчи салбий ҳаракатлар содир этилишининг олдини олиш, ўз хизмат вазифаларига сидқидилдан ёндашиш билан боғлиқ тадбирлар юзасидан тушунтириш ишлари ташкил этилди.

**Ўткирбек ЮЛДАШЕВ,**  
Деҳқонобод тумани ФВ бўлими бўлинма бошлиғи, майор.



## УЧРАШУВ

“Навоий кон-металлургия комбинати” АЖ ва “Навоийуран” ДК Ёнгин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш марказининг олис Учқудуқ, Зарафшон ҳамда Навоий sanoat майдонида жойлашган ёнгин-қутқарув қисмларининг барча ҳарбий хизматчилари, шунингдек, вилоят ФВБ масъул ходимлари иштирокида “Коррупциясиз фаолият – ривожланиш гарови” мавзусида давра суҳбати бўлиб ўтди.

Унда шахсий таркиб ўртасида коррупция (порахўрлик), қимор ўйинларини ўйнаш, ёлгон маълумотларни тарқатиш, ходимлар томонидан йўл ҳаракати хавфсизлиги қоидаларининг қўпол равишда бузилиши, спиртли ичимликлар истеъмол қилган ҳолда автомобилни бошқармаслик ва ходимлар томонидан фуқаролар билан мулоқотга киришганда хушмуомалада бўлишлари, тамағирлик ва фирибгарлик каби иллатларга йўл қўймасликлари ҳамда хизматга келиб-кетишлари юзасидан қатор тавсиялар бериб ўтилди.

Йиғилиш сўнггида шахсий таркибни қизиқтирган саволларга масъул ходимлар томонидан жавоб берилди.

**Нуриддин КАРИМОВ,**  
Навоий вилояти ФВБ шахсий хавфсизлик бўлими бош инспектори, капитан.  
**Маъруфжон ҲАЙИТОВ,**  
НКМК ЁХТТЭМ гуруҳ бошлиғи, катта сержант.

## О'QUV SEMINARI

Qashqadaryo viloyati FVBda Davlat yong'in nazorati inspektorlari o'rtasida “Korrupsiyaga qarshi kurashni o'zimizni isloh qilishdan boshlaylik!” mavzusida o'quv seminari o'tkazildi.

Unda yong'inlar profilaktikasi samaradorligini oshirish va yong'in xavfsizligi, sohada davlat nazoratini takomillashtirishga oid qabul qilingan farmon hamda qarorlar mazmun-mohiyati, xizmat davrida korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik, shaxsiy tarkibning

odob-axloq qoidalariga rioya qilishi yuzasidan profilaktik tushuntirish ishlari olib borildi.

**Shaxboz BOBOVMURODOV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB axborot xizmati xodimi, oddiy askar.

## БАЙРАМ ШУКУҲИ

Халқаро анжуманлар саройида масъул раҳбарлар ва ҳарбийлар иштирокида мустақиллигимизнинг 32 йиллик байрами муносабати билан маърифий-маънавий тадбир бўлиб ўтди.



Тадбир давомида давлат вакиллари, факулда вакиллари ҳамда ёнги хавфсизлигини таъминлаш бўйича режалар ва давра суҳбати ҳам ташкил

этилди.

Бекзод РАҲМОНОВ,  
Халқаро анжуманлар саройи ЁХТТЭБ кичик инспектори,  
III даражали сержант.

## АНЖУМАН

ФВВ Академиясида “Қурилиш иншоотларининг ёнги баъдшлигини такомиллаштириш” мавзусида илмий-амалий анжуман бўлиб ўтди.

Унда Ўзсаноатқурилиш материаллари уюшмаси, ФВВ ёнги хавфсизлиги ва факулда вакиллари муаммолари илмий-тадқиқот институти, тегишли вакиллари ва идораларнинг масъул ходимлари, олий таълим муассасалари вакиллари, ФВВ Фуқаро муҳофазаси институти, вакиллари матбуот хизмати ходимлари, шунингдек, Академиянинг профессор-ўқитувчилари, ҳарбий хизматчилар, курсантлар ҳамда ОАВ ходимлари иштирок этдилар.

Анжуманни Академия бошлиғи, генерал-полковник Қобул Бердиев очиб, мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотлар натижасида барқарор иқтисодий ўсишнинг таъминланаётганлиги, айниқса, илғор технологияларга асосланган ҳолда ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқлари, илм-фан ва инновацион фаолиятнинг жадал ривожланиб бораётганлигини таъ-

кидлади ва анжуман кун тартибига тўхталиб ўтди.

Тадбирда сўзга чиққанлар бугунги юксак ривожланган фан-техника асрида факулда вакиллари хавфининг янада ошиб бораётганлигига эътибор қаратиб, қурилиш иншоотларида факулда вакиллари ва ёнгиларнинг олдини олиш, содир бўлганда оқибатларини бартараф этиш, бу борадаги муаммолар ечимини топиш, хавфсизликни таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш бўйича ўз фикр-мулоҳазаларини билдирдилар.

Анжуман доирасида ташкил этилган илмий-инновацион ишланмалар кўргазмаси ҳамда бадиий ва махсус адабиётлар ярмаркаси иштирокчиларда катта таассуротлар қолдирди.

Фарҳоджон ХОЖАЕВ,  
ФВВ Академияси катта ўқитувчиси,  
майор.



Махсус муҳандислик-қурилиш бoшқармаси шахсий таркиби иштирокida “Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!” shiori ostida bayram tadbiri tashkil etildi.

## BAYRAM TADBIRI

Tadbirida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, kinoaktyor Alisher Otoboyev so‘z olib, yigilik burchini o‘tayogan muddatli harbiy xizmatchilarni mustaqilligimizning 32 yilligi bayrami munosabati bilan samimiy tabriklab, Vatan, mustaqillik haqidagi she‘rlardan ifodalari o‘qidi.

Tantanada xizmat vazifalariga sidqidildan yondashib, shaxsiy tarkibga o‘mak bo‘lib kelayotgan bir guruh muddatli harbiy xizmatchilar faxriy yorliqlar bilan taqdirlandilar.

Sh.AHMADALIYEV,  
MMQB bo‘lim boshlig‘i,  
kapitan.



## HAMKORLIK

FVV Boshlang‘ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida Sog‘liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi Samarqand viloyati dezinfektsiyalash stansiyasi xodimlari bilan hamkorlikda kuzgi mavsum davomida yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida binolar, oshxona va boshqa joylarda dezinfektsiyalash, dezinfeksiya hamda deratizatsiya tadbirlari tashkil etildi.



Tadbirlar mobaynida tibbiyot xizmati boshlig‘i podpolkovnik O.Qaroyev va dezinfektsiyalash stansiyasining malakali mutaxassis xodimlari tomonidan yuqumli kasalliklarning oldini olish, sanitariya-gigiyena talablariga rioya etish yuzasidan tushuntirish, targ‘ibot va tashviqot ishlari amalga oshirildi.

A.VAHOBV,  
FVV BTva MOM feld’sheri, oddiy askar.  
O.CHORSHANBIYEV,  
feld’sher, oddiy askar.

## TUNGGI PROFILAKTIKA

Farg‘ona shahrida viloyat Ichki ishlar, Milliy gvardiya hamda FVB xodimlari hamkorligida tunggi vaqtlarda jinoyatchilik, yo‘l-transport hodisalari, yong‘inlar va favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tunggi profilaktik tadbirlar boshlandi.

Tadbirlar oldidan shaharda tunggi vaqtlarda xizmat olib boradigan xodimlar bilan saf ko‘rigi o‘tkazildi. Ko‘rik davomida shaxsiy tarkibga xizmat o‘tash vaqti-da xavfsizlik qoidalariga amal qilish, fuqarolar bilan suhballar davomida muomala madaniyatiga rioya etish yuzasidan alohida ko‘rsatmalar berildi.

Farg‘ona viloyati FVB axborot xizmati.

## UCH AVLOD UCHRASHUVI

FVV Boshlang‘ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazining yangi binosida “Uch avlod uchrashuvi” tadbiri o‘tkazildi.

Tadbirda uch avlod vakillari – iste‘fodagi faxriylari va tinglovchilarning ota-onalari taklif etildi. Uchrashuv davomida mehmonlar markazda yaratilgan shart-sharoit hamda ta‘lim berish jarayoni bilan tanishdilar.

Tadbirning asosiy qismini markaz boshlig‘i polkovnik Shukurillo Ayubov kirish so‘zi bilan ochib, uchrashuv ahamiyatiga to‘xtalib o‘tdi.

Tadbir davomida iste‘fodagi polkovnik Qobiljon Ergashev so‘zga chiqib, o‘z hayot yo‘li, polkovnik unvonigacha bo‘lgan xizmati haqida hikoya qilib, har bir inson o‘z ona-Vatanini sevishi lozimligini ta‘kidladi.

Aziz OCHILOV,  
BTva MOM boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari, mayor.  
Nodir KADIROV,  
Markaz bo‘lim boshlig‘i, podpolkovnik.

## ТАЪЛИМ – МУАММОЛАР ЕЧИМИ

ФВВ Бошланғич тайёргарлик ва малака ошириш марказида “Мустақиллик соати” ўтказилди.

Давлат таълим стандартларига мувофиқ бошланган ўқув йилининг ilk соатида, ҳар қандай муаммонинг ечими таълим билан боғлиқ эканлиги, ушбу ҳаётий ҳақиқатни амалга ошириш борасида таълим тизимида олиб борилаётган сай-ҳаракатлар тингловчиларга марказ профессор-ўқитувчилари томонидан турли мисоллар воситасида ёритиб берилди.

Таълимда соғлом рақобат муҳитининг йўлга қўйилиши натижасида муносибларни саралаб олиш, уларга nisbatan эътиборни янада кучайтириш соҳада ватанпарвар-

лар қатламининг ортиб боришига хизмат қилмоқда.

Шунингдек, ҳозирда ҳар бир ўқув йилининг амалиёт билан боғлан ҳолда олиб бориш ва уларга амалиётчи ҳарбий хизматчиларни жалб этиш тажрибаси йўлга қўйилган. Бунда турли кўринишдаги факулда ҳолатларда иштирок этган қўрувчиларнинг амалда кўрган-кечирганлари, ҳолатни тўғри баҳолаш амалиётлари мисоллар тарзида тингловчиларга тушунтириб ўтилмоқда.

Ш.АЮБОВ,  
ФВВ БТваММ  
бошлиғи, полковник.

## BOSHQARMADA TADBIR

Farg‘ona viloyati FVBda «Yangi hayot uchun, yangi O‘zbekiston uchun!» shiori ostida bayram tadbiri o‘tkazildi. Tadbirida sohada uzoq yillar samarali mehnat qilib, hozirda nafaqada bo‘lgan faxriylar hamda xizmat o‘tash vaqtida halok bo‘lgan xodimlarning yaqinlari ham ishtirok etdilar.

Tantanada Favqulodda vaziyatlar vazirining bayram tabrigi o‘qib eshitirildi. Shuningdek, sohada barchaga o‘mak bo‘lib, fidoyi xizmat qilib kelayotgan bir guruh harbiy xizmatchi va xizmatchilar qimmatbaho sovg‘alar va faxriy yorliqlar bilan taqdirlandilar. Shuningdek, bir guruh harbiy xizmatchilarga navbatdagi harbiy unvonlar topshirildi. Oltitariq tumani FV bo‘limi 8-yong‘in-qutqaruv qismi qutqaruvchi-haydovchisi xizmatchi Anvarjon Mahmudov “A‘lo xizmatlari uchun” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

S.ABBOZOV,  
Farg‘ona viloyati FVB axborot xizmati xodimi.





## БЕЛЛАШУВ

Бухоро вилояти ФВБ шахсий таркиби ўртасида кўрик-танлов бўлиб ўтди.

Мусобақаларда жами 6 та жамоа ўртасида спортнинг 4 тури бўйича, тактик ва жанговар тайёргарлик бўйича назарий билимлар синови, шунингдек, жисмоний тайёргарлик бўйича турникда тортилиш, жамоавий натижалар бўйича 100 метрга ва 3000 метрга югуриш каби босқичлар шулар жумласидандир.

Мусобақалар якунига кўра, 3-ўринни 16-ёнгин-қутқарув қисми жамоаси, 2-ўринни 23-ёнгин-қутқарув қисми жамоаси ва 1-ўринни 21-ёнгин-қутқарув қисми шахсий таркиби эгаллади.

Ғолиб жамоалар бошқарма бошлигининг қимматбаҳо совғалари ва фахрий ёрликлар билан тақдирландилар.

Ғолиб жамоа республика босқичига йўлланмани қўлга киритди.

**Наргиза НУРУЛЛАЕВА,**  
Бухоро вилояти ФВБ ахборот хизмати  
етакчи мутахассиси.

## О 'QUV MASHQI

Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi "Urganch-transgaz" unitar korxonasiga qarashli Urganch magistral gaz quvurlari boshqarmasida o'quv mashqi o'tkazildi.

Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda obyekt fuqaro muhofazasi tuzilmalari shayligini oshirish, rahbarlar tomonidan berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida va mukammal bajarish, evakuatsiya qilish hamda avariya oqibatlarini bartaraf etish choralarini amalda sinab ko'rish mashqning asosiy maqsadi etib belgilandi.

Magistral gaz quvurida sodir bo'lgan avariya oqibatlarini bartaraf etishda obyekt fuqaro muhofazasi tuzilmalari va tuman FVDT tarkibiga kiruvchi xizmatlardan jami 18 ta texnika, 63 ta shaxsiy tarkib ishtirok etdi.

**Abdusharip MAMATSAPAYEV,**  
Yangiariq tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i,  
katta leytenant.



## "YANGI NAFAS" MARAFONI

**O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan respublikamiz bo'ylab "Bir Vatanda, bir vaqtda, bir masofaga, bir maqsadda – birga yuguramiz!" shiori ostida "Yangi nafas" yugurish musobaqasi o'tkazildi. Qarshi shahrida ham ushbu musobaqa ko'tarinki ruhda tashkil etildi.**



Mingga yaqin ishtirokchi o'g'il-qizlar bir manzilga jam bo'ldilar. Musobaqa ishtirokchilari 3 yo'nalishda taqdirlandi. Doimiy sport bilan shug'ullanib keladiganlar, oddiy havaskorlar, huquqni muhofaza qiluvchi kuch tuzilmalari xodimlari.

Marafonda viloyatdagi barcha huquqni muhofaza qilish organlari idoralari qatorida viloyat FVB va uning joylardagi shaxsiy tarkibi ham faol ishtirok etdi.

**Shoxruh ZOIROV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB xodimi,  
kapitan.

Yangiayot tumani FV bo'limi va Tibbiyot birlashmasi markaziy ko'p tarmoqli poliklinikasida "Kuydirgi kasalligining tibbiy o'choqlardan kelib chiqish va tarqalishining oldini olishda FVDT xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida maxsus-taktik o'quv mashg'uloti bo'lib o'tdi.

## KASALLIKKA QARSHI



O'quv mashqida tuman tibbiyot birlashmasi, veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi hamda Sanitariya-epidemiologiya, osoyishtalik va jamoatchilik salomatligi xizmati xodimlari ishtirok etdilar.

Mashg'ulot yakunida yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish yuzasidan mutasaddi xizmatlarga tavsiyalar berildi.

**Sa'dulla SAGDULLAYEV,**  
Yangiayot tumani FV bo'limi katta inspektori, mayor.

## MAVSUMGA HOZIRLIK

Namangan viloyati FVB tomonidan "Kuz-qish mavsumi vaqtida favqulodda vaziyatlar davlat tizimi hududiy quyi tizimi boshqaruv organlari hamda kuch va vositalarining elektr energiya, tabiiy gaz, ichimlik suvi ta'minotida yuzaga kelgan holatlarda aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida qo'mondonlik-shtab o'quv mashqi o'tkazildi.

Rejaga ko'ra dastlab, shartli ravishda hududiy Elektr tarmoqlari aksiyadorlik jamiyati Namangan hududiy filialida tashkil etilgan "xabarlash" guruhi tomonidan boshqaruv organlari hamda Favqulodda vaziyatlar davlat tizimi hududiy quyi tizimi xizmatlari oqohlantirildi. Ushbu manzilga qo'mondonlik-shtab o'quv mashqi boshqaruv shtabi rahbariyati, hududiy Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari boshliqlari, shaxsiy tartib, sohaga dahldor idoralar vakillari, tibbiyot va iqtisodiyot tarmoqlari rahbarlari hamda Fuqaro muhofazasi tuzilmalari jalb qilindi.

Viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig'i, general-mayor Qosimali Ahmedov mazkur o'quv mashqining o'tkazish tartibi, shuningdek, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, zarur paytda tezkor chora-tadbirlar ko'rish bo'yicha zarur vazifalar belgilab berdi. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vaziri o'rinbosari Muxtor Muhiddinov Davlatobod tumanidagi "Otchopar" o'yingohida dala sharoitida yoyilgan harakatdagi boshqaruv punktida favqulodda vaziyatlarda davlat quyi tizimlari texnikalari va asbob-anjomlari qay darajada ta'minlanganligini o'rgandi hamda mas'ullarga qo'shimcha yo'riqnomalar berdi.

Ushbu mashqi davomida Davlatobod tumanida joylashgan hududiy elektr tarmoqlari aksiyadorlik jamiyati Namangan hududiy filialiga qarashli "Olmazor" nimstansiyasi hamda "Sardor" podstansiyasida kuz-qish mavsumida yuzaga kelgan avariya va nosozliklarni bartaraf

etish choralari mutaxassislar tomonidan kuzatildi. To'raqo'rg'on issiqlik elektr stansiyasida tozalangan va ifloslangan moy saqlash omborida shartli yong'in sodir bo'ldi. Olovni o'chirish uchun tegishli xizmatlar jalb qilindi. Ishchilardan biri tan jarohati olishi natijasida unga birinchi yordam ko'rsatilib, tez tibbiy yordam mashinasida shifoxonaga olib ketildi.

O'quv mashqi davomida Namangan shahri "Zarafshon" mahallasi hududidan o'tgan magistral ichimlik suv tarmog'ida va yana 20 dan ortiq korxonalar va tashkilotlar,

xizmat ko'rsatuvchi obyektlar hamda ko'p qavatli uylarda kuzatilishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar, ularning oldini olish bo'yicha boshqaruv organlari hamda favqulodda vaziyatlar davlat tizimi hududiy quyi tizimi xizmatlarining harakatlari sinovdan o'tkazildi. Yakunida, qo'mondonlik shtab-o'quv mashqi bo'yicha natijalar tahlil qilindi. Bu bo'yicha tegishli tavsiya va yo'l-yo'riqlar ishlab chiqildi.

**Akmaljon O'RINBOYEV,**  
Namangan viloyati FVB boshlig'i o'rinbosari – Shtab boshlig'i, polkovnik.



## HAMKORLIKDAGI MASHQ

Favqulodda vaziyatlar vaziri o'rinbosari polkovnik Muxtor Muhiddinov boshchiligidagi Energetika vazirligi bilan hamkorlikda Farg'ona viloyatida elektr energiyasi va gaz ta'minoti bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda mutasaddi tashkilotlarning harakatlarini o'rganish hamda kuz-qish mavsumida energetik obyektlarning barqaror, uzluksiz va xavfsiz faoliyat yuritishini ta'minlash bo'yicha qo'mondonlik-shtab o'quv mashqi bo'lib o'tdi.

O'quv mashqiga 40 dan ortiq vazirlik va idoralar vakillari, shuningdek, maxsus texnikalar jalb qilindi.

Tadbirlar davomida favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda to'g'ri harakatlanish, vaziyat oqibatlarini tezkor bartaraf etishga asosiy e'tibor qaratilib, mutasaddilarga zarur ko'rsatma va tavsiyalar berildi.

**Farg'ona viloyati FV bo'limi axborot xizmati.**

## ТАНТАНАЛИ ТАДБИР

ФВВ Бошланғич тайёргарлик ва малака ошириш марказида Ўзбекистон ёшлар иттифоқи Самарқанд вилояти бўлими ҳамкорлигида “Ватан ҳимояси – муқаддас бурч” мавзусида тантанали тадбир бўлиб ўтди.

Тадбирда таниқли ёш санъаткорлар, театр актёрлари, сўз ustalари, шунингдек, ОАВ вакиллари иштирок этдилар.

Тадбирни марказ бошлиғи полковник Ш.Аюбов кириш сўзи билан очди. У ўз сўзида мустақиллик шарофати билан қўлга киритилган соҳавий ютуқлар, Қуролли Кучларимиз Олий Бош



Қўмондони томонидан тизим ҳарбий хизматчи ва хизматчиларини ижтимоий қўллаб-қувватлашга қаратилаётган эътибор, келгусида белгилаб берилган улкан вазифалар, уларнинг ижроси хусусида тўхталиб ўтди.

Шундан сўнг иштирокчиларга Фавқулodда вазиятлар вазирининг соҳа ходимларига йўллаган байрам табриги

ўқиб эшиттирилди.

Тадбир давомида Марказда хизмат олиб бораётган бир гуруҳ ҳарбий хизматчиларга навбатдаги ҳарбий унвонлар, Фавқулodда вазиятлар вазирининг кўкрак нишонлари, эсдалик совғалар топширилди.

**А.ОЧИЛОВ,**  
**ФВВ БТ ва MOM**  
**бошлиғининг**  
**1-ўринбосари, майор.**

## ENG YAXSHI YOSH KITOVXON

ФВВ Бошланғич таййоргарлик ва малака ошириш марказида tinglovchilar o'rtasida “Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostida “Eng yaxshi yosh kitobxon” ko'rik-tanlovi tashkil etildi.



Ko'rik-tanlovini Marказ boshlig'ining birinchi o'rinbosari mayor A.Ochi-lov kirish so'zi bilan ochib, mamlakatimiz yoshlariga hozirgi kunda yaratilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar, bilim, intiluvchan va tashabbuskor yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida

amalgam oshirilayotgan tadbirlar xususida so'z yuritdi.

Tanlov davomida 12 nafar tinglovchi uchta shart bo'yicha bellashdi. Bahslar qizg'in va ko'tarinki ruhda o'tib, hakamlar hay'ati har bir tinglovchining ishtirokini munosib baholab bordi.

Musobaqa yakuniga ko'ra, g'olib bo'lgan ting-

lovchilar va faol ishtirokchilarga esdalik sovg'alar va faxriy yoriqlar topshirildi.

**F.MAVLONOV,**  
**FVV BT va MOM**  
**bo'lim boshlig'i,**  
**podpolkovnik.**  
**I.SULTONOV,**  
**Axborot-resurs**  
**markazi elektron**  
**kutubxona mutaxassisi,**  
**oddiy askar.**

## ATTESTATSIYA

Farg'ona viloyati FVBning Favqulodda vaziyatlar va Davlat yong'in nazorati organlari mansabdor shaxslariga tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqini berish yuzasidan attestatsiya tashkil etildi.



Attestatsiyada FVV boshqarma boshlig'i polkovnik F.Abdugodirov hamda viloyat FVB boshlig'i podpolkovnik I.Qo'chqorov, boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i polkovnik B.Ashurov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik

subyektlarining huquqlari va qonuniy mantaatlarni himoya qilish bo'yicha vakil devoni viloyat hududiy bo'limi xodimi va bir guruh komissiya a'zolari ishtirok etdilar.

**Zafar KADIROV,**  
**Farg'ona viloyati FVB**  
**bo'lim boshlig'i, pod-**  
**polkovnik.**

## O'RGANISH

FVV hamda Qashqadaryo viloyati FVB mas'ullari hamkorligida Qarshi shahridagi bozor va savdo majmualarida o'rganish ishlari olib borildi. O'rganishlar davomida sotuvchi va xaridorlarga yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, yo'laklarni yong'in-qutqaruv texnikalarining erkin harakatini chekllovchi buyumlar bilan to'sib qo'y-maslik tushuntirildi.

Kitob tumani FV bo'limi xodimlari ham targ'ibot tadbirlarida faol ishtirok etib, kuz-qish mavsumida favqulodda vaziyatlarning oldini olish yuzasidan profilaktik tadbirlar olib bormoqdalar.

**Shaxboz BOBOMURODOV,**  
**Qashqadaryo viloyati**  
**FVB axborot xizmati**  
**xodimi, odiy askar.**

Qashqadaryo viloyati FVBda mustaqilligimizning 32 yilligi munosabati bilan “Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!” shiori ostida bayram tadbiri bo'lib o'tdi.

Tadbir avvalida Favqulodda vaziyatlar vaziri general-mayor A.Qo'ldoshevning bayram tabrigi o'qib eshittirildi.

So'ng bir guruh harbiy xizmatchi va xizmatchilarga “A'lo xizmatlari uchun” ko'krak nishoni.

## BAYRAM TADBIRI



vazirlik esdalik qo'l soati hamda faxriy yoriqlar tantanali topshirildi.

**Qashqadaryo viloyati FVB axborot xizmati.**

## RAHBAR VA YOSHLAR

Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'i polkovnik F.Mirzayev Qarshi shahridagi 43-umumta'lim maktabida “Yangi hayot uchun, yangi O'zbekiston uchun!” shiori ostida tashkil etilgan “Mustaqillik darsi” da ishtirok etdi.



Polkovnik F.Mirzayev barcha o'quvchilarni yangi o'quv yili bilan tabriklar ekan, maktabga ilk qadamlarini qo'ygan o'quvchilarga Prezident sovg'alarini topshirdi.

O'z navbatida, yoshlarni puxta bilim olib, ulkan imkoniyatlardan unumli foydalanishga chorladi.

**Qashqadaryo viloyati FVB Axborot xizmati.**

## TINGLOVCHILAR UCHUN

FVV Bo'shlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi tinglovchilari tarkibi bilan o'quv seminar mashg'uloti o'tkazildi.

Unda Markazning malakali o'qituvchilari tomonidan “Yong'in-qutqaruv texnikasi asoslari” fanidan yurtimizda ishlab chiqarilayotgan zamonaviy yong'in-qutqaruv avtomobili bo'yicha ma'lumotlar berilib, yong'in, avariya va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda avanya-qutqaruv asbob-anjomlardan foydalanish bo'yicha tushunchalar berildi.

Shuningdek, mashg'ulot davomida



“KamAZ”

yosh harbiy xizmatchilar nazariy bilimlarini amalda mustahkamladilar.

**R.MAXAMOV,**  
**FVV BT va MOM katta**  
**o'qituvchisi, podpolkovnik.**  
**J.XOLMURODOV,**  
**Markaz o'qituvchisi, mayor.**

## VILOYAT BIRINCHILIGI

Qashqadaryo viloyatida huquqni muhofaza qiluvchi organlar harbiy xizmatchilari o'rtasida sportning kurash turi bo'yicha viloyat birinchiligi o'tkazildi. Unda viloyat FVB jamoasidan 10 nafar harbiy xizmatchi ishtirok etdi.

Musobaqada yengil vaznda ishtirok etgan hamkasbimiz odiy askar R.Kuchimov 60 kg. vaznda 3-o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, 66 kg. vaznda o'zining mahoratini namoyish etgan qutqaruvchimiz odiy askar F.Shuhratov 1-o'ringa munosib ko'ndi.

O'g'ir vaznlardagi kurashlarda ham polvonlarimiz sovrindorlar qatorida bo'ldi. 81 kg. vaznda kuch sinashgan odiy askar Sh.Ablaqulov 1-o'rinni egaladi. O'ta og'ir, ya'ni 100+ vaznda kurashgan mayor A.Yaxshiboyev 3-o'ringa, umumjamoa

hisobida viloyat FVB jamoasi 2-o'ringa munosib ko'ndi.

G'oliblar diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

**F.SALOMOV,**  
**Qashqadaryo viloyati**  
**FVB bo'lim boshlig'i,**  
**podpolkovnik.**



## PAXTA YIG'IM-TERIMIGA TAYYORGARLIK

Minshkor tuman FVB xodimlari hamda viloyat FVB xodimlari bilan hamkorlikda paxta hosilini qisqa muddatlarda yig'ib-terib olish, mavsumni betalafot o'tkazish maqsadida bir qator profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda.



Jumladan, jalb etiladigan hasharchilarni vaqtinchalik yashash joylarining yong'inga qarshi holati ko'zdan kechirilib, aniqlangan barcha kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilishiga erishildi. Ushbu maskanlarda yong'in xavfsizligi qoida va talablariga amal qilinishini targ'ib etish maqsadida 2 turdagi 2000 dona rangli plakattar va

eslatmalar hamda "Paxtani yong'indan asrang!" mavzusida 10 ta pannolar tayyorlanib, serqatnov avtomobil yo'llarining ko'rinarli joylariga, paxta tozalash korxonalariga hamda dala shiyonlariga yaqin bo'lgan joylarga o'rnatilishi belgilandi.

**S. CHORIYEV,**  
Mirishkor tuman  
FVB PvaNB boshlig'i,  
katta leytenant.

## O'RGANISH

Buxoro viloyati Kogon tumani FV bo'limi tomonidan tumandagi umumta'lim maktablari-da favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida yong'in xavfsizligi holati o'rganilib, navbatchilik tashkil qilindi.

Ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi va ishchi-xizmatchilarga favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha maktab hududi-

da nosoz, qo'lbo-la gaz va elektr asbob-uskunalaridan foydalanmaslik, elektr energiyasi va gazdan foydalanishda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi.

Ushbu tadbirlar davomida tinglovchilarning yong'in kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish borasidagi savollariga javoblar berilib, mavzuga oid eslatmalar tarqatildi.

**S. IKMATOV,**  
Kogon tumani FV  
bo'limi bo'linma kichik  
inspektori, serjant.



## BARCHAMIZ MAS'ULMIZ!

Kuz-qish mavsumida xavo haroratining pasayishi elektr, gaz va isitish moslamalariga nisbatan ehtiyojni oshiradi. Bu, uzoq navbatlarda, barchamizdan ehtiyot va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilishni talab qiladi.

Shuning uchun ish, xizmat joylarida, shuningdek, xonadonlarda

engin va bo'shqa tushadigan favqulodda vaziyatlarining oldini olishga asosiy ehtiyojni qaratishimiz lozim.

Arzimaagan ehtiyojsizlik ekanligini ko'rsatib berib, bolalariga beparvo bo'lish, ularni nazoratsiz qoldirish ekanligini mutaxassislarining tavsiyalariga amal qilmaslik talafotli oqibatlariga olib kelishi,

Jizzax viloyati FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazida shahar va tumanlar favqulodda vaziyatlar bo'limlari boshliqlari, ularning o'rinbosarlari, profilaktika va nazorat bo'linmalari yong'in nazorati bo'yicha davlat inspektorlarining yong'inlar profilaktikasi sohasiga oid huquqiy va kasbiy bilimlarini mustahkamlash bo'yicha o'quv kursi tashkillashtirildi.

## PROFILAKTIKA

Kurs davomida o'quv dasturi asosida yong'in xavfsizligining asosiy tushunchalari va normalari, yong'in xavfsizligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonunining asosiy normalari, normativ-huquqiy, asosiy shaharsozlik normalari qoidalariga hamda davlat yong'in nazorati organlarining tizimi, faoliyati va mansabdor shaxslarning huquq va majburiyatlari va h.k. mavzular bo'yicha boshqarma xodimlari tomonidan o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.

**R. QARSHIBOYEV,**  
Jizzax viloyati FVB HFXO'M boshlig'i, mayor.

**B. QOBILOV,** o'qituvchi.



## YONG'INDAN OGOHLIK

"Yong'indan ogohlik" umummilliy kompaniyasida belgilangan vazifalarni bajarish va mavsumni betalafot o'tkazish maqsadida, Chinoz tumani favqulodda vaziyatlar, ichki ishlar bo'limlari, MG va mahalla faollari hamkorligida "Dehqonobod" MFYda yashovchi fuqarolar bilan profilaktik tadbirlar o'tkazildi.



Tadbirlar doirasida aholi yashash xonadonlarida nosoz yoki qo'lbo-la usulda yasalgan gaz va elektr isitish moslamalardan foydalanmaslik, sertifikatga ega bo'lgan jihozlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilib, yong'in sodir

bo'lgan vaqtda "101" va "1050" qisqa raqamlariga qo'ng'iroq qilish bo'yicha tushunchalar berilib, eslatmalar tarqatildi.

**Azizbek QO'SHAQOV,**  
Chinoz tumani FV  
bo'limi boshlig'i  
o'rinbosari, kapitan.

engin aчинарлиси, ўзимиз, яқинларимиз ҳаётига хавф солишини асло унутмаслигимиз керак.

Ҳозирда соҳа ходимлари томонидан жойларда ёнғин ҳодисаларининг олдини олишга оид тadbirlar кучайтирилган тартибда олиб борилмоқда. Албатта, барчамиз ушбу амалий саъй-ҳаракатларда янада фаол бўлишимиз, бу борадаги тadbirlarга муносиб ҳисса қўлишимиз лозим. Зеро, ҳамиша огоҳ

ва ҳушёр бўлиб, хавфсизлик қоидаларига амал қилар эканмиз, ўзимиз ва ўзгаларнинг ҳаётини ёнғин ва бошқа тусдаги фавқулodда вазиятлардан муҳофаза қилган бўламиз.

Шундай экан, бу борада барчамиз мас'ул эканлигимизни унутмайлик!

**Г. РЎЗИБОЕВ,**  
Тошкент шаҳар ФВБ  
ДМ ЁХТТЭБ кичик  
инспектори,  
оддий аскар.



## QABRISTONLAR OBOD QILINMOQDA

Yurtimizda ulug' alloma va mutafakkirlarning muborak hoki abadiy qo'nim topgan qadamjolarini obodonlashtirish azaliy an'anaga aylangan.

Farg'ona viloyati FVB va shahar, tuman FV bo'limlari tomonidan hududlardagi qabristonlarda obodonlashtirish, tozalash, oqlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Hozirda ushbu savobli ishlar joylarda davom ettirilmoqda.

**Ahldin ALIJONOV,**  
Farg'ona viloyati FVB axborot xizmati  
boshlig'i, kapitan.

## YONG'INLAR PROFILAKTIKASI

Qarshi tumani hududidagi aholi, tashkilotlar va ta'lim muassasalari o'rtasida yong'in xavfsizligi chora-tadbirlariga rioya etish to'g'risida keng tushuntirish ishlari olib borish bilan bir qatorda, yong'inlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Tadbirlar davomida mahalla faollari bilan birgalikda uyma-uy yurilib, yong'inga qarshi holatlar bo'yicha aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilmoqda.

O'ta muhim va davlat ahamiyatiga molik, yong'in va portlash xavfi yuqori obyektlarda yong'in xavfsizligini mustahkamlash, ularning rahbarlari bilan yong'in-taktik o'quv va mashg'ulotlari, tushuntirish ishlari tashkil etilmoqda.

**A. ABDUMALIKOV,** Qarshi tumani FV bo'limi katta inspektori, katta leytenant.  
**B. JO'RAYEV,** yetakchi instruktor.

## TARFIBOT

Jizzax viloyati Dўstlik tumani FV bўlimi raҳbariyati va xodimlari ish-tirokida bозорlarda аҳоли ва tadbirkorlar ish-tirokida tushuntirish hamda tarfi-bot ishlari amalga oshirib kelinmoqda.



Mazkur tadbirlar davomida mutaxassislar tomonidan ish-tirokchilarga ёнғин ва техника хавфсизлиги қоидаларига қатъий амал қилиш, электр мосламаларидан фойдаланиш даврида эҳтиёткор бўлиш, бозор ҳудудида ёнғин-қутқарув автомобилларининг эркин ҳаракатлинишига тўсқинлик қилувчи ҳолатларни юзага келтирмаслик лозимлиги тushuntirib борилмоқда.

**Дилмурод ЭРКАБОЕВ,**  
Дўстлик tumani FV бўлими бўлинма  
бошлиғи, лейтенант.

# ТАЪЛИМГА ЭЪТИБОР — КЕЛАЖАККА ЭЪТИБОР

Шаҳрисабз “Темурбеклар мактаби” ҳарбий-академик лицейида 2023-2024 ўқув йили бошланиши муносабати билан тантанали тадбир ўтказилди.

Тадбирни академик лицей директори Х.Абдиқодиров кириш сўзи билан очиб, бугунги кунда мамлакатимизда кечаётган иқтисодий-ижтимоий ўзгаришлар, ёшларга берилаётган эътибор, хусусан, “Темурбеклар мактаби” ҳарбий-академик ли-

цейларида ўқувчилар учун яратилган шароитлар ҳақида тўхталиб ўтди.

Тадбирда сўзга чиққанлар барчани мустақиллигимизнинг 32 йиллиги билан табриклаб, лицейда ўтган ўқув йилида эришилган ютуқларни эътироф

этди. Жумладан, 2022-2023 ўқув йилида ҳарбий академик лицейлар ўртасида “Янги Ўзбекистонга қанот бўламыз!” шиори остида ўтказилган “Энг намунали ўқувчи” танловининг Республика босқичида 4-21 гуруҳи ўқувчиси Аҳадов Жон-Мухаммаднинг 1-ўринни эгаллагани, спортнинг “Муайтай WMMF” тури бўйича ўтказилган Ўзбекистон Чемпионати ҳамда 15-Осиё Чемпионатидаги ўқувчиларнинг зафарли одимлари, 98 нафар битирувчининг 94 нафари (шундан 87 нафари давлат гранти, 7 нафари тўлов-контракт) олий таълим муассасаларига қабул қилинганлиги энг яхши ютуқлар сифатида тилга олинди.

Шунингдек, сўзга чиққанлар саралаш босқичларидан муваффақиятли ўтиб “Темурбеклар мактаби” ўқувчиси деган шарафли номга сазавор бўлган биринчи босқич ўқувчиларига мақсадлари йўлида улкан омадлар тиладилар.

**Зиёдулла КЕНЖАЕВ,**  
**Шаҳрисабз “Темурбеклар мактаби” ҲАЛ ўқитувчиси.**

Ўзбекистон Республикаси саноат хавфсизлиги давлат қўмитаси ходимлари томонидан вилоятлардаги мавжуд аттракционларни давлат назоратидан ўтказиш учун ҳудудлар кесимида маҳаллий ҳокимиятлар, мутасадди ташкилотлар ҳамкорлигида маданият ва истироҳат боғларидаги ҳар хил турдаги аттракционлар ўрганиб чиқилмоқда.

## ИСТИРОҲАТ БОҒЛАРИДАГИ АТТРАКЦИОНЛАР ЯРОҚЛИМИ?

Ўрганишлар жараёнида ҳар бир маданият ва истироҳат боғида ёнгин-қутқарув, тез тиббий ёрдам ва бошқа махсус техниканинг монеликсиз ҳаракатланиши учун шароит яратиш, фавқулодда вазиятларда фуқароларни эвакуация қилиш йўллари ташкил этиш ва уларнинг доимий таъминлаш чоралари кўрилди.

Тегишли далолатномалар расмийлаштирилиб, камчилик аниқланган аттракционлардан фойдаланмаслик шарти ҳамда камчиликлар бартараф қилинганга қадар тўхтатиб қўйиш бўйича маҳаллий дав-

лат органларига ахборотномалар ҳамда маданият ва истироҳат боғлари раҳбарларига тақдимнома берилди.

**Ш у н и н г д е к .** Саноат хавфсизлиги давлат қўмитасининг «Аттракционлардан хавфсиз фойдаланиш қоидаларини тасдиқлаш ҳақида»ги қарори лойиҳаси идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат сифатида ишлаб чиқилди ва бу борада ишлар давом эттирилмоқда.

**С. ХИДИРОВ,**  
**Тоғ-кон, геология ва саноат хавфсизлигини назорат қилиш инспекцияси Самарқанд ҳудудий бўлини маси инспектори.**



## ЎРГАНИШ ВА ТАҲЛИЛ

Жиззах вилоятида 15 та объект ИИБ, МГ, ФВБ ва бошқа мутасадди ташкилотлар билан ҳамкорликда текшириб чиқилди.

Ўрганиш жараёнларида аниқланган камчиликлар юзасидан ҳокимликларга 15 маротаба ахборотнома, юқори турувчи ташкилот ва муассасалар раҳбарларига 3 маротаба ва бошқа мутасадди ташкилотларга 31 маротаба тақдимномалар киритилди.

Тақсимотга асосан, байрам тадбири ўтказилган кунлари 107 нафар хизматчи ва ҳарбий хизматчилар ҳамда 18 та ёнгин-қутқарув автоуловлари бириктирилиб, тадбирлар давомида ёнгинлар ва бошқа тусдаги фавқулодда вазиятларнинг олдини олишга асосий эътибор қаратилди.

**Тўлқин МАМАДИЁРОВ,**  
**Жиззах вилояти ФВБ бўлим бошлиғи, подполковник.**  
**Акрам САМИЕВ,**  
**бошқарма бўлим бош инспектори, капитан.**

## ЭҲТИЁТСИЗЛИК ФОЖИАГА ОЛИБ КЕЛАДИ

Ўзбекистон Республикаси Тоғ-кон саноати ва геология вазирлиги ҳузуридаги Тоғ-кон, геология ва саноат хавфсизлигини назорат қилиш инспекцияси томонидан корхона ва ташкилотларда саноат радиация ва ядро хавфсизлиги бўйича назорат-профилактика тадбирлари ўтказилмоқда.

Жумладан, Самарқанд вилояти, Жомбой тумани, “Ҳолвойи” МФИда жойлашган “нефтни қайта ишлаш заводи “мохсар” МЧЖда инсонлар соғлиғи, атроф-муҳит муҳофазаси, ишчи-ҳодимларнинг саноат хавфсизлиги талабларига риоя этиши юзасидан тушунтириш ишлари, давра суҳбатлари олиб борилиб, уларга норматив-техник ҳужжатлар билан ишлашда амалий ёрдам кўрсатилди.

**Н.ЎРОҚОВ,**  
**Тоғ-кон, геология ва саноат хавфсизлигини назорат қилиш инспекцияси, Шимолий Ғарбий минтақавий бошқармаси бош мутахассиси, давлат инспектори.**

Buxoro viloyati FVBning o'ta muhim va toifalangan obyektlarni muhofaza qiluvchi yong'in-qutqatuv bo'linmalari shaxsiy tarkibi o'rtasida ko'rik-tanlov bo'lib o'tdi.

## КО'РИК-TANLOV

Musobaqa qatnashchilari taktik va jangovar tayyorgarlik bo'yicha nazary bilimlar, jismo-

yicha 30 nafar xodim qatnashdi. Ushbu ko'rik-tanlovning 1-bosqichi o'ta muhim va toifalangan



niy tayyorgarlik bo'yicha turnikda tortilish, 100 va 3000 metrga yugunish bo'yicha o'zaro bellashdilar.

Ko'rik-tanlovning viloyat bosqichida mazkur toifalar bo'y-

gan obyektlarni muhofaza qiluvchi yong'in-qutqaruv qismlari smenalarini o'rtasida o'tkazilib, unda g'olib chiqqanlar 2-bosqichda, boshqarva hududida o'ta muhim va toifalangan obyektlarni muhofaza qiluvchi yong'in-qutqaruv qismlari

miqyosida sinovdan o'tdilar.

Viloyat FVBning o'ta muhim va toifalangan obyektlarni muhofaza qiluvchi yong'in-qutqatuv bo'linmalari shaxsiy tarkibi o'rtasida kasbiy, xizmat, jangovar va

jismoniy tayyorgarlik yo'nalishi bo'yicha 21-yong'in-qutqaruv qismi 5 nafar xodimi – ddiy askarlar Axadxo'ja Akramov, Mirshod Ikromov, Alijon Rahimov, Firdavs Choriyev, Shohijaxon Xayrullayevlar 1-o'rinni egalladilar.

23-yong'in-qutqaruv qismi 5 nafar xodimi – oddiy askarlar G'ayrat Toshev, Amir Atoyev, Jo'rabek G'aforov, Baxrom Usmonov, Nodir Shukurovlar 2-o'rinni egalladilar.

16-yong'in-qutqaruv qismi 5 nafar xodimi – oddiy askarlar Jo'rabek Jumayev, Aziz Xolmurodov, Zavqiddin Safoyev, Rahmon Rajabov, Bexruz Jumayevlar 3-o'ringa munosib ko'ridilar.

Tanlov g'oliblari va ishtirokchilariga qimmatbaho sovg'alar va faxriy yorliqlar topshirildi.

**A.YUNUSOV,**  
**Buxoro viloyati FVB OYXTTEB boshlig'i, podpolkovnik.**  
**N.AYNAZAROVA,**  
**katta inspektor, podpolkovnik.**

## МАВСУМГА ШАЙЛИК

Янгиҳаёт тумани ҳокими бошчилигида сектор раҳбарлари, ФВДТ ташкилотлари ҳамда МФЙ раислари ва ёрдамчилари иштирокида куз-қиш мавсумига тайёргарлик кўриш, энергетика тармоқларининг барқарор ишлашини таъминлаш, фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш, содир бўлганда оқибатларини бартараф этиш юзасидан йиғилиш ўтказилди.

Мажлис давомида мавсумни беталафот ўтказишда мута-

садди идора ва хизматларнинг масъулиятини янада ошириш, соҳалар кесимидаги камчиликларни вақтида бартараф қилиш, аҳолининг мурожаатлари ва улардаги муаммоларни жойида ҳал этиш, ёнгин-қутқарув хизматлари билан бевосита ҳамкорлик ишларини ташкиллаштириш масалаларига асосий эътибор қаратилди.

Тадбир якунида соҳа мутахассислари томонидан иштирокчиларнинг саволларига жавоб берилди.

**С.ТУРСУНОВ,**  
**Янгиҳаёт тумани ФВ бўлими бошлиғи, подполковник.**



# АНТИҚА ЕТТИЛИК



Инсон ўз саломатлигини сақлаш учун нималар қилмайди дейсиз. Вақти келса, шўр ва ёғли маҳсулотлардан тийилиш зарур. Лозим бўлганда «қуруқ» парҳезга ҳам «ўтириш»га тўғри келади. Айрим ҳолларда ширинликдан тийилиш заруриятга айланади. Буни қарангки, ўз соғлигини ўйлаб ҳар бир муолажани ўз «синови»дан ўтказиб турувчи қизиқувчилар учун ғарб олимлари мева-сабзавотларнинг антиқа еттилигини тавсия этмоқда.

**1-маҳсулот – олча.** Сир эмас, кўпчилигимиз нордон таъмли олчага нисбатан ширинроқ таъмга эга бўлган йирик гипосларни хуш кўраемиз. Буни қарангки, ширинликка учиб хато қиларканмиз. Олча таркибида кексалик аломатлари ва касалликлари билан курашувчи антиоксидант моддалар миқдори кўп бўлиб, у шамоллаш ва яллиғланишнинг олдини олишга ҳам ёрдам беради. Айниқса, нордон таъмлилари!

**2-маҳсулот – киви.** Тўғри, бу тропик мева бироз тансиқроқ ва албатта бошқа меваларга нисбатан қимматроқ. Майин тукли қопламидан ажратиб олиш ҳам бироз ноқулайлик туғдиради. Бироқ бир дона кивида организм учун зарур бўлган бир суткалик витамин С меъёрнинг тахминан 115% мавжуд экан. Бунинг устига у вазн сақлаш мувозанатига таъсир этмайди, яъни семиртмайди, чунки у атиги 45 килокалория қувватга эга.

**3-маҳсулот – балиқ.** Юрак қон-томир тизими ва мия фаолиятининг меъёрда ишлаши учун балиқнинг тана тўқималари таркибида бўлган моддаларнинг аҳамияти беқиёс. Шифокорларнинг таъкидлашича, соғлом киши бир йилда камида 4–5 кг. балиқ гўшти ейиш зарур экан. Уни қовуриб, қайнатиб, яна димпаб ҳам ейиш мумкин. Дудланган ва консерваланган балиқ маҳсулотлари эса ўз йўлига. Муҳими, балиқ гўшти таркибидан организмни турли касалликларга қарши курашда ёрдам берадиган, айниқса

мия фаолияти учун зарур моддаларнинг мавжудлиги. Оилавий балиқхўрлик анъаналари эса ҳар томонлама фойдали.

**4-маҳсулот – зиғир уруғи.** Орамизда кўпчилик кунгабоқар пистасини хуш кўриши сир эмас. Таркиби ёғ ва оқсилга бой писта қанчапик ширин ва мароқли эрмак бўлмасин, оғиз бўшлиғи касалликлари келтириб чиқарувчи омил бўлиб қолаверади. Бунинг устига у кўзилгамас «тезликда» семиртиради ҳам. Зиғир уруғи таркибида эса пигнан гуруҳига кирувчи моддалар мавжуд бўлиб, организм бедаво дардларга чалинишининг олдини олади ва овқат ҳазм қилиш тизимини меъёрлаштиради. Яна бир устунлиги, унинг пўстлоғи йўқ, тишингиз орасига кириб асабийлаштирамайди ҳам. Таъми ёқимсизроқ-да десангиз, салатга ёки бўтқага аралаштириб истеъмол қи-

линг ва фойдали моддалардан баҳраманд бўлинг.

**5-маҳсулот – сут зардобу.** Юзингизни буриштирманг, ахир у сиз севиб истеъмол қиладиган пишлоқ ва творог тайёрлашдан қолдиган иккиламчи маҳсулот. Шундай бўлсада у жуда фойдали. Ишонмайсизми? Унда қулоқ тутинг: биринчидан, сут зардобу оқсил моддасига бой. Бундай оқсил ҳам фойдали, ҳам ортиқча вазн тўпланишига олиб келмайди. Бундан ташқари, қайта ишлаш оқибатида ушбу оқсилнинг тузилиши энди қорамол сутидан кўра кўпроқ она сутига ўхшаш ва осон ҳазм бўлади. Шунинг учун ҳам болалар учун ишлаб чиқарилган тайёр бўтқаларнинг кўпчилиги сут зардобу ёрдамида тайёрланади. Иккинчидан, унинг таркибида меъда-ичак фаолиятини меъёрлаштирадиган ачитқилар мавжуд.

**6-маҳсулот – карам.** Озишни истаганлар баъзи кишилар қуёнлар каби «кемириб» юрадиган оддий карам. Хоҳ ишонинг, хоҳ ишонманг, карам таркибида бедаво дардга (онкологик касалликларга) қарши индол ва сульфорофан мод-

далари, суяклар мустаҳкамлиги учун кальций, қон айланиш тизими учун темир моддаси бор экан. Бундан ташқари, ҳаёт учун зарур аминокислоталар – витамин А, С ва К лар мавжуд. Улар кўз фаолияти, иштаҳа очилиши, қон ивишини таъминлашга хизмат қилар экан. Кам калорияга эга бўлгани учун ҳам организмдаги ортиқча ёғ қатламларининг эришига хизмат қилади ва меъда фаолиятига зарур бўлган клечаткага бой.

**7-маҳсулот – кокос.** Бу тансиқ тропик мева ҳар доим ҳам дастурхонимиз беазаги бўлавермайди. Қорамтини қатъий дастур орқали сақлайдиган қизлар уни ҳаддан ортиқ ёғли, деб ҳисоблашлари ҳам бор гап. Ҳақиқатдан ҳам кокос таркибида бошқа ёнғоқмевалар каби ёғ миқдори мавжуд. Бироқ бу организмда тўпланиш хусусиятига эга бўлмаган ёғ. Кокос ёғини зарарли хусусиятларга эга пальма ёғи билан адаштирманг! Кокос мевасининг таркибидаги минерал тузлар, темир ва кальций моддаси ҳамда витаминлар организм учун фойдали.

Ғарб олимларининг антиқа еттилик тавсиясида айрим ҳақиқатлар мавжуд. Буни инкор қилолмаймиз. Бироқ жаннатмакон ўлкамизнинг мева ва сабзавотлари ҳар қандай «антиқалик»дан устун. Қуёшга тўйинган ҳар қандай мева-чеваю сабзавот, бир-биридан ширин полиз экинлари, иликни тўлдирадиган гўшт, сут ва балиқ маҳсулотларининг кони фойда. Фақат тўғри истеъмол қилиш ва меъёрни билсангиз бўлди.

**Масрур САНАЕВ,**  
интернет материаллари  
асосида тайёрлади.



## Vaziyat

газетаси

**Муассис:**  
**Ўзбекистон**  
**Республикаси**  
**Фавқуллодда**  
**вазирлар**  
**вазирлиги**

Бош муҳаррир в.б.  
**Азамат СУЙОНОВ**

Газета таҳририят  
компьютерхонасида  
сахифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг  
пайшанба куни чиқади.  
Топшириш вақти — 15:00.  
Топширилди — 15:00.

Навбатчи:  
**Б. ВАЛИЕВ**

Таҳририятга юборилган  
материаллар қайтарилмайди ва  
изоҳ берилмайди.  
Муаллифлар фикри таҳририят  
нуқтаи назаридан фарқланиши  
мумкин.

Газетадан олинган  
материаллар манбаси  
кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон  
Матбуот ва ахборот  
агентлигида 2007 йил  
3 январда 0096-рақам  
билан рўйхатга олинган.  
**ISSN 2091-5292**

**Таҳририят манзили:**  
100084, Тошкент шаҳри,  
Кичик ҳалқа йўли, 4-уй.  
Тел.: (71) 231-96-71  
Телеграмма: (90) 016-87-67

**Индекс:**  
якка обуначилар ва  
ташкilotлар учун – 382

Газета  
"BUSINESS PRINT DESIGN"  
босмахонасида босилди.  
**Манзил:** Тошкент шаҳри,  
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.  
Буюртма №  
Бичими: А3, ҳажми: 2.0 б.т  
Адади 5400 нусха